TARBIYADA MAKTAB - OILA - MAHALLA HAMKORLIGIDAN ASOSIY MAQSAD - KOMIL INSONNI TARBIYALASH

Qoraxonova Lobarxon Musaxonovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, jismonan sog‘lom, mustaqil fikrlaydigan va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashda oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning mazmuni, ota-onalarning tarbiyaviy mas’uliyati, ta’lim muassasalarining vazifalari hamda mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy axborot makonining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya berish hamda pedagogik hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, yosh avlod, oila, ta’lim muassasasi, mahalla, pedagogik hamkorlik, ota-ona mas’uliyati, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, vatanparvarlik, tarbiya.

Аннотация. В статье освещается значение взаимодействия семьи, образовательного учреждения и махалли в воспитании молодого поколения как духовно и нравственно зрелых, физически здоровых, самостоятельно мыслящих и патриотически настроенных личностей. Рассматриваются содержание семейного воспитания, воспитательная ответственность родителей, задачи образовательных учреждений и роль махалли в воспитании молодежи. Особое внимание уделяется влиянию современного информационного пространства на духовный мир молодежи, воспитанию на основе национальных и общечеловеческих ценностей, а также укреплению педагогического сотрудничества между семьей, школой и общественностью.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, молодое поколение, семья, образовательное учреждение, махалля, педагогическое сотрудничество, ответственность родителей, национальные ценности, духовность, патриотизм, воспитание.

Abstract. This article highlights the importance of cooperation between the family, educational institutions, and the mahalla in raising

a younger generation that is spiritually and morally mature, physically healthy, independent-minded, and patriotic. It examines the content of family upbringing, parents' educational responsibility, the tasks of educational institutions, and the role of the mahalla in youth development. Particular attention is paid to the influence of the modern information environment on young people's spiritual development, education based on national and universal human values, and strengthening pedagogical cooperation among families, schools, and the wider community.

Keywords: spiritual and moral education, younger generation, family, educational institution, mahalla, pedagogical cooperation, parental responsibility, national values, spirituality, patriotism, upbringing.

Mamlakatimizda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan yosh avlodni tarbiyalash asosiy maqsad hisoblanadi. Hozirda yoshlarimizning barqaror hayoti uchun yangicha «tarbiya» usul va shakllarini yaratish kuchli ijtimoiy zaruriyat sifatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan asosiy masalalardan hisoblanadi. Oila, maktab va mahalla hamkorligida olib borilgan ma’naviy-axloqiy ishlar sifati o‘quvchi-yoshlarning tarbiyalanganlik darajasi bilan qiymatli sanaladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish, ma’naviy tarbiya samaradorligini baholash hamda ma’naviy-axloqiy tarbiya muammolarini samarali hal etishda pedagogik hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitini takomillashtirishda o‘qituvchi – o‘quvchi – ota-ona, jamoatchilik tashkilotlari – o‘quvchi – o‘qituvchi, ta’lim muassasalari – o‘quvchi – mahalla organlari, mahalla organlari – o‘quvchi – ota-onalar faoliyati mushtarakligi yoxud pedagogik hamkorlik munosabatlari asosiy tayanch omillar sanaladi.

«Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq – ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq yoxud axloqiy me’yorlarsiz shaxs ruhiy va jismoniy yetukligi mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Yosh avlodni axloqiy, madaniy-ma’rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash oiladan boshlanadi. Barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bag‘rikenglik, yuksak ma’naviyat egasi hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e’zozlaydigan qilib tarbiyalashda uch asosiy omil – oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda o‘quvchi ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamida globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Har bir ota-ona o‘z farzandi kamolini ko‘rish uchun uni voyaga yetkazadi, albatta, bu jarayon o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi.

Keling, «Nima eksang, shuni o‘rasan» degan xalq naqlini boshqacha, ya’ni «Nima o‘rishni xohlasang, shuni ek», shaklida talqin qilib ko‘raylik. Ota-ona farzandiga mol-mulk, uy-joy, avtomobil yoki boshqa moddiy boyliklarni bera olishi mumkin, lekin tarbiya yoxud baxtni hamma ham hamisha topib bera olmaydi. Bu, eng avvalo, ularning o‘zlari qanday tarbiya ko‘rganlik darajasi bilan bevosita bog‘liq jarayon sanaladi. Bir kuni ota o‘g‘lini yetaklab ketayotib, «O‘g‘lim, qadamingni hamisha o‘ylab bos», deb nasihat qilsa, o‘g‘li: «Ota, siz qanday yo‘ldan yursangiz, men ham ana shu yo‘ldan yurayapman, sizga ergashayapman», deb javob bergan ekan.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogika iborasi «bola yetaklamoq» ma’nosida talqin qilinadi. Demak, biz pedagoglar faoliyatimiz jarayonida bolalarni yetaklab yuramiz, biz qanday qadam bossak, farzandlarimiz ham shu yo‘ldan yuradi. Bu tarbiyaning ibrat-namuna usuliga misol bo‘la oladi. Ta’lim-tarbiya masalasi har doim kun tartibidagi masalalardan biri bo‘lib kelgan va shunday vazifa bo‘lib qoladi. Chunki yangi avlodlar dunyoga keladi va ular ham ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, o‘z Vatani va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish maktablarning ota-onalar, oilalar, mahalla qo‘mitalari, Ma’naviyat va ma’rifat markazi bo‘linmalari, jamoat tashkilotlari va jamg‘armalar bilan mustahkam o‘zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

Bolalarning ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom bo‘lishlarida, ayniqsa, oila muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-ona, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan kasbga yo‘naltirish, ularni mustaqil

fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalar bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish va ularning qo‘shimcha ta’lim olishlariga shart-sharoit yaratish, ular ongiga sanitariya-gigiyena hamda ekologik bilim va ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish oila zimmasidagi muhim vazifalar sanaladi.

Davlatimiz oilaga hamisha jiddiy e’tibor qaratib kelgan. Shu bois davlat oilaga ham moddiy, ham ma’naviy yordam berib, oilaviy tarbiyani maktab va jamoatchilik bilan uyg‘unlashtirishdan manfaatdor.

Oila vazifalari

Oila tarbiyasida ota-onalarning tarbiya borasidagi madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni tarbiya pedagogikasi yutuqlari bilan tanishtirish, ularning mustahkamligini ta’minlash asosiy vazifalardan biri sanaladi. Ota-onalar va oilalarni tarbiyaga oid bilimlar, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Tarbiya jarayonida ota-ona va o‘qituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas’uliyati nihoyatda muhim. Tarbiyaga oid bilim faqat ota-onalar ishi bo‘lib qolmay, balki keng jamoatchilik, keng ma’noda davlat ahamiyatiga molik ishdir.

Oilaning eng muhim xususiyat yoxud vazifalaridan biri kelajak avlodni ko‘paytirishdan iborat. Oila bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida ijtimoiy tashkilotlar bilan hamohang holda faoliyat yuritmoqda. Oila tarbiyasi muammolarini tadqiq etish, asosan, ikki yo‘nalishda olib borilmoqda. Birinchi jihati – oila tarbiyasi masalasi pedagogikaning an’anaviy qismi sifatida o‘rganilmoqda. Ikkinchi tomondan, oila sotsiologiya va filologiya yo‘nalishida ham tadqiq etilmoqda.

Mamlakatimizda ayni paytda oilaning ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Oilaning moddiy ehtiyojini qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda. Bugungi kunda oila mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan axloqiy-ruhiy aloqalar juda muhim sanaladi. Ayni shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to‘laqonli hissiy-emotsional, otalik yoki onalik, bir so‘z bilan aytganda, baxtli oilani barpo qilishga xizmat qiladi.

Mahalla vazifalari

Ta’lim muassasalari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilish, oqilona yechimlar topishda faollik ko‘rsatish, farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta’sirini o‘tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida ma-

halla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko‘rish mahallaning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Bundan tashqari, yoshlar diniy mazhab va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta’sirini to‘g‘ri anglab yetishida ularga ota-onalar orqali ta’sir ko‘rsatish, ulug‘ ajdodlarimizning tarbiyaviy o‘gitlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish, mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish ham ana shunday vazifalar sirasiga kiradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahallalarning mavqeini yuksaltirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyat va an’analarimiz tiklanib, zamon talablari asosida boyitilmoqda. Mahallalar imkoniyati va vakolatlarining tobora kengayib borayotgani fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ahillik, hamjihatlik, osoyishtalik muhitini asrab-avaylash, oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati ortayotganida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalla tarbiya o‘chog‘idir. Farzand oilada dunyoga kelib, birinchi bor ota-onasini tanisa, ulg‘aygan sayin mahalladagi odamlarni taniy boshlaydi va yurish-turish, odob-axloq, jamiki ijobiy fazilatlarni, avvalo, mahalladan, aniqrog‘i, ota-onalari, qo‘ni-qo‘shnilari, tabarruk otaxonlar, duogo‘y onaxonlardan o‘rganadi.

Shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, «Oila – mahalla» tizimidagi ishlarni takomillashtirish, oila va mahallaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilaning mustahkamligi, barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligiga erishish yaxlit jamiyat barqarorligi va tinchligining muhim omillaridan sanaladi.

Ijtimoiy boshqarishning o‘ziga xos shakli bo‘lgan mahalla madaniy-ma’naviy tadbirlarni amalga oshirish bilan birga, oilaviy urf-odatlar, an’analar, oiladagi quvonchli lahzalar hamda oila hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ahamiyatli voqealarni targ‘ib qilishning ishonchli markazi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Mahalla har bir oila va shaxs bilan imkoniyat darajasida ish olib borish uchun ma’naviy salohiyat va huquqiy imkoniyatga ega bo‘lgan maskan hisoblanadi.

Mahallada kishilarni odob-axloqqa o‘rgatish, ularga urf-odatlar, turli qadriyatlarni singdirish, ilg‘or udumlarni keng yoyish borasida ajoyib an’analar qaror topgan. Oila kichik vatan bo‘lsa, mahalla uning

mustahkam tayanchi hisoblanadi. Oilalar farovon, obod bo‘lsa, mahalla ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi. Mahallalar obod bo‘lsa, yurtimiz ham shunchalik obod bo‘ladi. Ya’ni bugungi kunning mahallasi, eng avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

Shu ma’noda mahallani demokratiya darsxonasi ham deb atash mumkin. Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud, ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o‘rni beqiyos.

Ta’lim muassasalari vazifalari: bolalarga ta’lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o‘rinli foydalanishga shart-sharoit yaratish, o‘quvchi-yoshlarning ta’lim-tarbiya olish jarayonida turli xil chalg‘ituvchi vositalarning zarari va ular oqibatlarining oldini olish bo‘yicha keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, hozirgi murakkab sharoitda yosh avlod ongi va shuuriga ta’sir etishga qaratilgan ma’naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish, ta’lim muassasalarida yoshlarning birorta kasb-hunarni egallashi uchun poydevor yaratish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish ta’lim muassasalari zimmasidagi vazifalar sirasiga kiradi.

Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi ta’lim va tarbiya jarayonida birgalikda harakat qilish, tarbiyalanuvchiga hurmat va talab uyg‘unligi, hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqligi, bunda millat va davlat manfaatlari ustuvorligi, hamkorlik ishlarining ilmiyligi kabi tamoyil va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi.

Maktabning tom ma’noda tarbiya markazi rolini o‘ynashi uchun o‘qituvchi va ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi shart. Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota-onalar o‘rtasida ijtimoiy-tarbiyaviy muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi ishlarni jonlantirish, takomillashtirish oila va maktab aloqasini mustahkamlovchi omildir. Maktablardagi ota-onalar qo‘mitasi ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqa qilishda o‘qituvchi va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo‘g‘in sanaladi. Mazkur qo‘mita ota-onalar jamoatchiligini maktab hayotiga, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga jalb qilishi lozim.

Bolalarni tarbiyalash ota-onaning muqaddas burchi sanaladi. Katta va kichikni hurmat qiladigan, o‘zaro mehribon, bir-biridan yordamini ayamaydigan, bir-biriga izzat va hurmat ko‘rsatadigan, yaxshi xulq va atvorga ega bo‘lgan, bilimli va tarbiyali bolalar axloqan pok, ma’naviy dunyosi boy oilalarda voyaga yetadi. Demak, maktablar barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O‘qituvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga faol jalb qilgan, o‘quvchilari ota-onalari bilan mustahkam aloqa va hamkorlik o‘rnatgan maktab ma’muriyati nafaqat ta’lim, balki tarbiyada ham yuksak yutuqlarni qo‘lga kirita oladi. Bunday maktablar o‘z atrofidagi zavod, fabrika, jamoa va davlat xo‘jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o‘quvchilarning maktabdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqda, qarovsiz, tarbiyasi og‘ir bolalarni o‘z nazoratiga olmoqda. Bunday xayrli ishlarda ko‘plab ota-onalar maktab bilan yaqin aloqada bo‘lib, o‘qituvchilar bilan bamaslahat ish olib boryapti.

Yuqoridagi usullarning faol qo‘llanishi, ota-onalar bilan o‘tkazilgan tarbiyaviy suhbatlar, huquq va majburiyatlar haqidagi bilimlar, ularni yoshlar tarbiyasiga jalb etish, milliy tarbiyani mahalla, mahalla oqsoqollari kengashlari faoliyati yo‘nalishiga aylantirish ota-onalarning tarbiyachi sifatidagi faolligi oshishiga olib keladi. Buning natijasida o‘quvchilarimizning axloqiy tarbiyasida hech qanday yot g‘oyalarga o‘rin qolmaydi.

Ta’lim-tarbiyaning mana shunday tashkiliy-metodik tamoyillaridan biri bu – pedagogik hamkorlikdir. Ya’ni oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning milliy parametrlari, xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllanib kelayotgan qadriyatlarini chuqur singdirish, vatan sha’ni va obro‘sini ko‘zlashi, yoshlarimizni yuksak marralar sari intiluvchi munosib farzand bo‘lishi uchun hamkorlik dasturlari asosida ish olib borishi muhim.

Hamkorlik dasturlari yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik tamoyillari asosida yuksak odamiylik va fuqarolik burchiga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash, mustaqil fikriga ega, tafakkuri ozod, erkin shaxsni zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘la oluvchi, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qodir komil insonlarni kamol toptirish g‘oyalarini qamrab olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4676839

2. Najot tarbiyada / X. Ibraimov, M. Quronov, F. Boqiyev. – Toshkent: «Noshir», 2024. – 62 b.

3. G‘oziyev, E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-eksperimental tahlil. – Toshkent: Noshir, 2010.